

TALABALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

A.M. Kudratzoda ¹, Q. Esanbayev ²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada insonlar ongida ekologik qonunlarga bo'ysunmaslik, tabiatga oddiy nazar bilan qarash tasavvurlari singib borish. Insonlarning tabiatga bo'lgan nopisand munosabati natijasida global o'sish va iqlim o'zgarishi, cho'llanish, Orol dengizining qurib borishi kabi muommolar, tuzatib bo'lmaydigan ekologik krizislarni keltirib chiqarayotganligi. Shuning uchun bugungi kunda oila ekologik tushunchalarni shakllantiruvchi va uni bola ongiga singdiruvchi yagona markazi ekanligi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, oila, atrof-muhit muhofazasi, ekologik tushunchalar, tasavvurlar, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, sog'lom turmush, tabiat.

doi: <https://doi.org/10.2024/qw7q7077>

Insonlardagi ekologik ongni, ekologik ta'lim va tarbiya, ma'lumotlar orqali qayta qurish, uning hayot tarzini va manaviyatini o'zgartirish zarur. Hozircha insonlar ongida ekologik qonunlarga bo'ysunmaslik, tabiatga oddiy nazar bilan qarash tasavvurlari singib ketgan. Insonlarning tabiatga bo'lgan nopisand munosabati natijasida global o'sish va iqlim o'zgarishi, cho'llanish, Orol dengizining qurib borishi kabi muommolar, tuzatib bo'lmaydigan ekologik krizislarni keltirib chiqardi. Shuning uchun bugungi kunda oila ekologik tushunchalarni shakllantiruvchi va uni bola ongiga singdiruvchi yagona markaz bo'lib qoldi.

Oilada ekologik tushunchalarni shakllantirish bolaga aqlini tanigandan boshlab o'rgatiladi, bolaga yoshligidan suvni toza holda ichishga, qo'lidagi narsalarni iflos qilmaslikka, o'yinchoqlarni sochib tashlamaslikka o'rgatish kerak. Chiroyli gul yonidan o'tganda uni sindirmoqchi bo'lsa, unga tushuncha berish, boshqalar ham ko'rsin, gullab tursa chiroyli, uzib olsang, so'lib qoladi" deb o'rgatish kabi tarbiyaviy holatlar ekologik tushuncha hisoblanadi va ular bola shakllangan sari uning ongida mustahkam o'rnashib boradi.

Darslarda yoshlarga sanitariya-gigiena qoidalariga oid tushunchalar berish, ularda zararli odatlarning oldini olish, OIV infeksiyasi va undan himoyalani, reproduktiv salomatlik, o'smirlik davrining ruhiyat muammolari, atrof-muhitning salomatlikka salbiy ta'sirini kamaytirish yuzasidan ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda, har bir yoshni o'zi uchun sog'lom turmush tarzini tanlashi, birinchi navbatda sog'ligi darajasini tibbiy ko'rikdan o'tish yo'li bilan baholashga ham o'rgatish ahamiyatga molik masaladir.

Respublika aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Ular o'rtasida ijtimoiy, ma'naviy –ma'rifiy targ'ibot ishlarini samarali va ta'sirchan uslubda amalga oshirish uchun har bir ta'lim muassasasida sog'lom turmush tarzi, shaxsiy gigiena, oila ma'naviyati, zararli

¹ Ansori Muazzam Kudratzoda, Tojikiston Panjikent pedagogik instituti rektori, professor

² Q.O.Esanbayev, SamDCHTI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

illatlarning sog'lom bola tug'ilishiga salbiy ta'siri haqidagi tushunchalar oilada bilimli va ma'lumotli ota-ona tomonidan beriladi.

Bugungi kunda yoshlarimiz ongiga sog'lom turmush tarzi tamoyillarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari xohish-istaklari ostida tegishli mavzular keng yoritib borilmoqda. Jumladan, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan oliy o'quv yurtlari bilan kelgusi o'quv yillari uchun talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi targ'iboti bo'yicha ish rejalari tasdiqlanib, bugungi kunga qadar "Sog'lom turmush tarzi", "Reproduktiv salomatlik", "Zararli odatlarning oldini olish", "Sog'lom ovqatlanish", "OIVG'OITS profilaktikasi" mavzularida davra suhbatlari, savol-javob kechalari uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Ana shunday samarali olib borilsada, ayrim yoshlarimiz sog'lom turmush tarzi tushunchasidan xabardor emas, tadbirlarda ishtirok etmayotgani bois o'z sog'ligiga ham e'tibor bermaydi. Ba'zida ko'cha-kuyda yigitlarimizning tamaki chekishi, spirtli ichimliklar iste'mol qilayotganini ko'rib, kelajakda ulardan qanday ota-ona, qanday oila vujudga kelishini ko'z oldimizga keltiramiz. Yoshlarimizning tartibsiz ovqatlanishi, uyali oloqa vositalaridan uzluksiz foydalanishi ham sog'lig'i uchun zararlidir. Buning uchun nafaqat tibbiyot xodimlari, balki keng jamoatchilik nazorat targ'ibot vakillaridan tashqari, albatta, oilada bular haqida fikr almashinuvi lozim. Bolaga u qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, unga birinchi navbatda ota-onasi bu muammolarni tushuntiradi va yumshoqlik, bosiqlik bilan anglatadi.

Mamlakatimizda oila, ota-ona, bolalar sog'ligini muxofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar yoshlarni jismoniy va ma'naviy etuk, barkamol shaxs qilib rivojlantirishda birinchi tarbiyaviy vazifani o'taydi. Oilada inson uchun tabiat eng qimmatbaho, oliy makon degan tushuncha bo'lib shakllanishi va u har bir insonning shaxsiy mulki sifatida asrab avaylanishi lozimligi doim uqtirilib, tabiat bilan o'zaro bog'liqligi oddiy misollar asosida tushuntib boriladi. Aslida rivojlanish haqida tasavvurlar o'zgarib bormoqda, inson va tabiat bir yaxlit. Ularni bir-biridan ajratib bulmaydi, shuning uchun inson va tabiatni bir-biriga qarshi qo'yish noto'g'ri va bemaqsad hisoblanadi. Bir narsani unutmash lozim, ya'ni inson tabiatsiz yashay olmaydi, tabiat esa insonsiz mavjud bo'la oladi.

Inson tabiat qonunlarini o'zgartirish yoki yo'qotish imkoniga ega emas, tabiat qonunlari inson buyrug'i yoki xohishsiz ham rivojlanaveradi. Inson hech qachon tabiat ustidan hukmdor bo'la olmaydi, inson tabiatga xos bo'lib, uning ichida yashaydi. Inson tabiat qonunlariga biror o'zgartirish kirita olmaydi, balki uning butun kuchi, faoliyati o'sha qonunlardan to'g'ri foydalanishdadir.

Tabiat abadiy va tugamas, shuning uchun ham u insondan kuchli, inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, doimo unga moslashishi va lozim bo'lsa, unga yordam berishi kerak, tabiatga qarshi bo'lishi insonning o'ziga yomonlik keltiradi. Agarda biz tabiatni hurmat qilmasak va unga ozor bersak, bir kun kelib tabiat bizdan o'ch oladi. Demak, oilada ekologik madaniyatni shakllanishining asosiy mazmuni – inson va tabiat ustidan bog'liqlikni ijobiy tushunish va tabiat bizda emas, balki biz tabiatda yashaymiz, degan tushunchaga amal qilgan holda asrab-avaylashimiz lozim.

Tabiat bilan uyg'unlashib yashash, avaylash lozimligini ayrim insonlar unutib qo'yishdi. Ba'zi vaqtlarda odamlar moddiy boyligimiz oshsa, ma'naviy boyligimiz ham oshib boradi, biz shu tariqa madaniyatli bo'lib boramiz, deb o'ylashdi.

Ekologik va ijtimoiy tanglik amaliy insonparvarlikni talab etadi va ayni paytda ular insoniyatni yangi nazariy pog'onaga ko'tarilishga majbur qiladi. Haqiqiy ekologik ong va dunyoviy madaniyatda bir madaniyatni so'ndirib yoki yo'qotib, o'rniga ikkinchisini keltirib bo'lmaydi, balki u dunyodagi barcha odamlarga umuminsoniy, axloqiy, ma'naviy tuyg'ularni

birlashtirish orqali yanada mustahkamlanadi. Madaniyatli odamlar atrof-muhit, o'simliklar va hayvonlar muhofazasi hamda ularga bo'lgan munosabatlarni insoniy asosda birlashtiradilar. Bundan maqsad – tabiatni saqlash va dunyoning uzluksizligini ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Oliy majlisning 1992y. 8 dekabrda 12-chaqiriq 11-sessiyasida qabul qilingan). Toshkent. O'zbekiston; 2008, 4ob.

[2]. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov nutqi. T.: Sharq, - 1997, - 3-2ob

[3]. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017, - 102 b.

[4]. Hayot va turmush odobi dasturi (X-XI sinflar uchun). T.: "O'zbekiston"-1990 y.-30-bet